

Yuridik departamenti tomonidan
88 -sonli reestr raqam bilan
2025-yil "05" 11 da
"RO'YXATGA OLINGAN"

"Poytaxt Bank" AJ Boshqaruvining
2025-yil "05" 11 dagi
168 -sonli qaroriga 1-ilova bilan
"TASDIQLANGAN"

Kreditlarni restrukturizatsiya qilish TARTIBI

Mazkur Kreditlarni restrukturizatsiya qilish Tartibi (keyingi o'rinlarda "Tartib") bankning ichki qoidasi bo'lib, moliyaviy qiyinchilikka uchragan, fors-major yoki murakkab hayotiy holatlarga duch kelgan qarzdorlar uchun kredit majburiyatlarini qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) tartibini belgilaydi.

Tartib bankning Amaliyot boshqarmasi va barcha BXMLarida majburiy qo'llaniladi va amaldagi qonunchilik hamda Markaziy bankning tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, bankning ichki tartib-taomillarini belgilaydi.
2. Tartibning maqsadi - qarzdorlarning kreditni qayta to'lashga qodirligini tiklashga ko'maklashish hamda bank tizimida barqarorlikni ta'minlash.

2-bob. Restrukturizatsiya tushunchasi va shakllari

4. Kreditni restrukturizatsiya qilish – bu qarzdorning arizasi hamda bankning moliyaviy tahlili asosida kredit shartnomasidagi ayrim shartlarni o'zgartirish yoki qo'shimcha kelishuv tuzish orqali qarzdorlikni yengillashtirish choralaridir.

Restrukturizatsiya qilish quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- kredit to'lovlarining muddatini uzaytirish;
- foiz stavkasiga o'zgartirish kiritish;
- penya va jarimalarni qisman yoki to'liq kechish;
- asosiy qarz yoki foizni ma'lum muddatga kechiktirish;
- ta'minotni yangilash yoki qo'shimcha ta'minot taqdim etish;
- kreditni qayta moliyalashtirish;
- jarima va foizlarni kapitalizatsiya qilish (asosiy qarzga qo'shish).

Jarima/penya va hisoblangan foizlarni kapitalizatsiya qilish faqat qarzdorning alohida yozma roziligi bilan amalga oshiriladi. Kapitalizatsiya shartlari va **total cost** – mijozning jami majburiyati alohida varaqda ochiqilanadi.

Kechiktirish davrida foizlarning hisoblanishi/hisoblanmasligi, ularni to'lash tartibi va muddatlari qo'shimcha kelishuvda alohida ko'rsatiladi.

3-bob. Restrukturizatsiya so'rab murojaat qilish

5. Qarzdor (yuridik yoki jismoniy shaxs) kredit to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish imkoniyati cheklangan taqdirda bankka yozma yoki elektron shaklda ariza bilan murojaat qiladi.

6. Bank kredit qarzdorligi bo'yicha 30 kundan oshgan mijozga ogohlantirish yuborib, ajratilgan kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya) yuzasidan maslahat taklif qilishi mumkin.

7. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

Jismoniy shaxslar uchun:

- pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;
- daromad manbalari yoki daromad yo'qligi haqida ma'lumotnoma;
- moliyaviy qiyinchilikni tasdiqlovchi hujjatlar (kasallik varaqasi, ishdan bo'shatilish buyrug'i, tabiiy ofat haqidagi hujjat va h.k.);
- garov/kafillikka oid yangilangan ma'lumotlar (zarur bo'lsa);
- kelgusida kutilayotgan tushumlar prognozi.

Yuridik shaxslar uchun:

- yuridik shaxsning arizasi (korxona rahbari imzosi bilan);
- so'nggi 12 oy uchun buxgalteriya hisoboti (balans, foyda va zararlar hisobotlari, pul oqimi hisobotlari);
- qisqa va uzoq muddatli qarzdorliklar bo'yicha ma'lumotnoma;
- moliyaviy qiyinchilikni tasdiqlovchi hujjatlar (aylanma pasayishi, faoliyat to'xtashi va b.);
- qarzdorning restrukturizatsiya bo'yicha taklifi (muddat, foiz, penya bo'yicha o'zgartirish rejasi);
- hisobvaraqlar aylanmalari to'g'risida bank ma'lumotnomasi (so'nggi 6 oy);
- kafillar yoki ta'sischi tomonidan taqdim etilgan kafolat xatlari (buning asosida kafillik rasmiylashtiriladi);
- soliq organlaridan qarzdorlik holati haqida ma'lumotnoma.

8. Tabiiy ofat, o'lim, nogironlik, oila boquvchisining vafoti va boshqa favqulotda holatlarida Bank minimal hujjatlar talab qilish orqali soddalashtirilgan tartibda restrukturizatsiya qilishni qo'llashi mumkin.

9. Bank zarur deb hisoblagan taqdirda qo'shimcha hujjatlar (misol uchun, biznes-reja, kutilayotgan tushumlar prognozi, audit xulosasi va b.) so'rashi mumkin.

10. Ariza va hujjatlar qabul qilingan sanada ro'yxatga olinadi hamda axborot tizimida qayd etiladi.

11. Hujjatlar to'liqligi tekshirilib, to'liq bo'lmagan hujjatlar bo'yicha murojaat ko'rib chiqilmaydi.

12. Hujjatlar to'liq qabul qilingan kundan e'tiboran ariza 10 ish kuni ichida, murakkab holatlarda 20 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

13. Restrukturizatsiya qilish haqida qaror qabul qilishdan avval qarzdorning to'lovga qobiliyati PTI (mijozning oylik kredit to'lovi uning daromadiga nisbati), DTI (mijozdagi barcha qarz to'lovlarining jami uning daromadiga nisbati) ko'rsatkichlari orqali baholanadi. PTI 50 foizdan DTI 60 foizdan oshmasligi kerak (ipoteka uchun alohida ko'rsatkichlar belgilanadi).

14. Ariza ko'rib chiqilayotgan davrda mijoz uni qaytarib olish huquqiga ega.

4-bob. Arizani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish

15. Bank qarzdor taqdim etgan ma'lumotlar asosida moliyaviy holatni baholaydi va restrukturizatsiya imkoniyatini tahlil qiladi.

16. Qaror Kredit qo'mitasi tomonidan 10 ish kuni ichida qabul qilinadi.

17. Kredit qo'mitasi quyidagicha qaror qabul qilishi mumkin:

- restrukturizatsiyani ma'qullash (to'liq yoki qisman);
- rad etish (asoslar ko'rsatilgan holda);
- qo'shimcha ma'lumot talab qilish.

18. Qaror natijasi to'g'risida qarzdorga 1 (bir) ish kuni ichida yozma yoki elektron xabarnoma yuboriladi.

5-bob. Homiladorlik va tug'ish ta'tilida bo'lgan ayollarning kredit to'lovlari muddatini uzaytirish

19. Iste'molchi homiladorlik yoki tug'ish ta'tiliga chiqqani holati yuzasidan bankka ariza bilan murojaat qiladi.

20. Arizaga pasport nusxasi, ish joyidan ta'til to'g'risida ma'lumotnoma/yoki FHDYOdan guvohnoma, amaldagi kredit shartnomasi nusxasi, imkon bo'lsa ta'til davrida daromad/nafaqa haqida ma'lumot ilova qilinadi.

21. Ariza kelib tushgan sanada ro'yxatga olinadi.

22. Bank arizani 5 ish kuni ichida ko'rib chiqadi.

23. Holat isbotlangan taqdirda, to'lovlar muddati o'n (10) oygacha uzaytirilishi mumkin.

24. Uzaytirish faqat ta'til davriga amalga oshiriladi va foizlar hisoblab borilaveradi. Bunda qarz oluvchi bilan qo'shimcha kelishuv tuzilib, yangilangan kreditni qaytarish grafigi rasmiylashtiriladi. Qo'shimcha kelishuv imzolangandan so'ng kuchga kiradi va 1 (bir) ish kuni ichida restrukturizatsiya natijasida qarzdorning umumiy xarajatlari va yangi to'lov jadvali mijozga yozma yoki elektron shaklda taqdim etiladi.

6-bob. Qaror ijrosi va hujjatlashtirish

25. Ijobiy qaror qabul qilingach, amaldagi kredit shartnomasiga Qo'shimcha kelishuv tuziladi va unda yangi to'lov jadvali, foiz stavkasi, penya/jarima, ta'minot shartlari va amal qilish muddati belgilanadi. Kelishuv ikki tomon imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

26. "Restrukturizatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar qonunchilikka muvofiq kredit byurosiga taqdim etiladi va mijozga kredit tarixiga ta'siri oldindan ma'lum qilinadi.

27. Qarz oluvchi restrukturizatsiyadan keyin ham kreditni muddatidan oldin to'liq yoki qisman to'lash huquqiga ega. Bunda qo'shimcha jarimalar qo'llanilmaydi.

7-bob. Hisob, monitoring va nazorat

28. Restrukturizatsiya qilingan kreditlar hisobi alohida yuritiladi, har oy monitoring qilinib boriladi. Restrukturizatsiya shartlar buzilsa Bank kreditni muddatidan oldin talab qilish huquqiga ega.

8-bob. Yakuniy qoidalar

29. Ushbu Tartib Bank boshqaruvi qarori bilan belgilangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kiritildi:

Kreditlash departamenti direktori

A.Tashev

Kelishildi:

Boshqaruv raisi

D.Pulatov

Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b

A.Turgunov

Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b

A.Xodjakulov

Bosh buxgalter

A.Abdullayev

Yuridik departamenti direktori

J.Saipov

**Iste'molchi-jismoniy shaxslarga kredit majburiyatlari bilan bog'liq
ehtimoliy tavakkalchiliklar to'g'risidagi**

CHEKLIST

Kredit shartnomasini rasmiylashtirishdan (ofertani tasdiqlashdan) avval, ushbu ro'yxatni diqqat bilan o'qib chiqing va har bir bandni tushunganingizni tasdiqlang.

№	Tushuncha	Tasdiqlash belgisi
1	Kredit - bu xarajat. Kredit majburiyatlari asosiy qarzdani tashqari foizlar va kredit bilan bog'liq boshqa xarajatlarni ham o'z ichiga olishini tushundim.	
2	Kreditni qaytarish jadvali (sanalar, miqdorlar, to'lov usullari) bilan tanishdim va o'z vaqtida bajaraman.	
3	Daromadlarim to'lovlarni qoplashga yetadi; kutilmagan holatlar (ishdan ayrilish, daromad kechikishi, sog'liq)ni inobatga oldim.	
4	To'lovlarni kechiktirish oqibatlarini (jarima, penya, sud xarajatlari, kredit tarixining yomonlashuvi) haqida xabardorman.	

Tasdiqlayman _____ (imzo) _____ (F.I.Sh)

Sana: ____ / ____ / ____

Y U R I D I K X U L O S A

№ <u>92</u>	2025-yil " <u>05</u> " <u>11</u>	Toshkent shahri
Xulosa beruvchi:	"Poytaxt Bank" AJ Yuridik departamenti direktori J.Saipov	
Hujjat loyihasi nomi	Kreditlarni restrukturizatsiya qilish Tartibi.	
Ekspertiza o'tkazish uchun asos	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 5-aprelda 916-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom	
Ekspertiza predmeti	Hujjatning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta'minlash.	
Hujjat qabul qilinishiga asos bo'lgan Qonunchilik va ichki qoidalar	"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunlar, Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari, bank Ustavi, bankning boshqaruv organlarining qarorlari.	
Hujjat amaldagi normativ huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishi	Hujjat amaldagi normativ huquqiy hujjatlar talablariga mos keladi.	
Gender qonunchiligi talablariga mos kelishi	Hujjatda ayollarning teng huquqligi, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini buzadigan normalar mavjud emas.	
Hujjat "Poytaxt bank" AJ ichki qoidalar talablariga mos kelishi	Hujjat bankning ichki qoidalar talablariga mos keladi.	
Qonunchilik texnikasiga rioya etilganligi	Qonunchilik texnikasi talablariga rioya etilgan.	

Xulosa: Kreditlarni restrukturizatsiya qilish Tartibi loyihasi O'zbekiston Respublikasi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, bankning ichki qoidalar talablariga muvofiq keladi.

Yuridik departament direktori

J. Saipov